

KREATIV TAFAKKUR RIVOJLANISHINING EVTESTIK JIHATLARI

Sardor Shamsiyev

SamDU tadqiqotchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7843140>

Annotatsiya: Bugungi kunda ta'lim tizimi jadal rivojlanib bormoqda. Zamon standartlarini amalga tadbiq etish o'qituvchidan nafaqat doimiy kasbiy rivojlanishni va yuqori malakani, balki o'z ishiga ijodiy yondashishni ham talab etmoqdi. Mazkur maqolada kreativ tafakkur rivojlanishining evtestik jihatlari haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: pedagogik faoliyat, evtestik jihatlari, faol pozitsiya, ma'naviy qashshoqlik, o'qituvchining kreativligi, elektron xizmatlar, virtual reallik, to'rtburchakli tarvuzlar, moslashuvchanlik, amaliy kreativ harakat ko'nikmalari, kreativ fikirlash, muvaffaqiyatli rivojlantirish.

Bugungi kunda dunyoda yuz berayotgan to'rtinchi sanoat tamaddunining dvigateli – harakatga keltiruvchi kuchi bu kreativlik. Atrofga boqsangiz har tomonda inson ijodkorligining beqiyos va hayratlanarli namunalariga duch kelasiz: elektron xizmatlar, virtual reallik, to'rtburchakli tarvuzlar, tuproqsiz hosil olish...

Bularning barchasi inson tasavvuri, tafakkuri mahsuli. Bugun biz uchun odatiylik kasb etayotgan kitob, musiqa, bino, samolyot, hatto lampalar ham qachonlar orzu va tasavvurda bo'lgani, aql-idrok samarasi o'laroq yaratilgan. G'ildirakning kashf etilishidan boshlangan yaratuvchanlik namunalari bugun koinotda kezib yuribdi. Innovatsiyalar kundalik turmushimizda kulayliklar yaratadi, og'irimizni yengil, uzog'imizni yaqin qiladi.

Hozirgi paytda jamiyatning maktab oldiga qo'yayotgan talablari kun sayin ortib bormoqda va bu talablarga to'g'ri yondashgan holda ularni amalga bajarish o'qituvchining vazifasidir. Pedagogik faoliyat inson mehnatining eng murakkab sohalaridan biridir. Hozirgi jamiyatimizda o'qituvchi eng faol pozitsiyadagi shaxs sifatida zamonaviy bilimlarini egallab borishi, tinimsiz izlanuvchan va fidoiy bo'lishi lozim chunki, u kechiktirib bo'lmas jarayon shaxsni intellektual hamda ma'naviy qashshoqlikdan qutqarib qoladi. O'qituvchining kreativligi o'z tajribasini qayta ko'rib chiqishi va yaxshilashi hammaga ma'lum narsalarni o'zgartira olishi va ijodiy foydalana olishi, sifat jihatdan yangiliklarni yaratishi juda katta ahamiyatga ega bo'lib bormoqda. Kreativlik tushunchasi (lot., ing. "create"-yaratish, "creative"-yaratuvchi, ijodkor) ingliz tilidan tarjima qilinganda ijod ma'nosini anglatadi. Kreativlikni: ijodga intilish, [hayotga ijodiy yondashish](#), o'ziga doimiy tanqidiy nazar solish va tahlil etish deyish mumkin. Hozirgi zamon psixologiya va pedagogika lug'atlariga asoslanib o'qituvchining kreativligi deb uning fikrlaridagi sezgilaridagi, muloqotdagi, alohida faoliyat turidagi, ijodiy yondashish, bilish darajasi deb ta'riflash mumkin. Kreativlik insonda mavjud ma'lumotlarni qayta ishlab chiqarish va ularni cheksiz yangi modelini yaratishga javob beradi. "Kreativlik otasi" nomi bilan mashhur Pol Torrans to'rtta kreativlik konikmasini aniqlagan. Uning olib borgan tadqiqotlari shundan dalolat beradiki, mazkur kreativ ko'nikmalarni shakllantirish va ularni baholash mumkin:

1. Ravonlik. Ko'plab g'oyalarni o'ylab topish ko'nikmasi ko'p degan so'zga asoslanadi.
2. Moslashuvchanlik. Turli g'oyalarni o'ylab topish ko'nikmasi o'zgartirish degan so'zga asoslanadi.
3. O'ziga xoslik. Boshqalarga o'xshamagan, ajralib turuvchi g'oyani o'ylab topish ko'nikmasi noyob degan so'zga asoslanadi.

4. Yaratuvchanlik. G'oyalarni kengaytirish ko'nikmasi qo'shish degan so'zga asoslanadi.

Kreativlik darslarida pedagoglardan ajoyib g'oyalarni o'ylab topish (o'ziga xoslik); ularni kengaytirish (ishlab chiqish); yoki boshqa g'oyalar bilan solishtirish va ulardagi bog'liqlikni topish (moslashuvchanlik) [talab etilganda](#), mazkur ko'nikmalar bir-biri bilan kesishadi. Patti Drepeau tomonidan ham shaxsda kreativlik sifatlarini muvaffaqiyatli rivojlantirishning to'rtta yo'li ko'rsatilgan:

- Kreativ fikrlash ko'nikmasini shakllantirish;
- Amaliy kreativ harakat ko'nikmalarini rivojlantirish
- Kreativ faoliyat jarayonlarni tashkil etish;

Kreativ mahsulot (ishlanma) lardan foydalanish. Xorijiy pedagoglar, xususan, Patti Drapeauning fikricha, bir shaxsning ayniqsa o'qituvchining kreativligi boshqalarni ijodiy jarayonini tashkil etishga ruhlantiradi.

Pedagogika fani yakka holda mukammallikka erisha olmaydi. U ham boshqa fanlar singari ijtimoiy fan yutuqlaridan foydalanadi va mazmunan boyib boradi. [Hozir](#) umumbashariyat tomonidan yaratilgan bilimlar va kelajak

haqida ma'lumot beruvchi nazariyalar muayyan darajada pedagogika fani uchun manba bo'la di. Boshqa fanlar kabi pedagogika har bir insonning ijtimoiy kamolotiga xizmat qiladi. Ta'lim tarbiya tarixi, pedagogika tarixi fanidan xabardor bo'lmay turib pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish mumkin emas..

Tarbiyaning mohiyatini ilmiy asosda tushunish uchun aniq tarixiy sharoitda uning taraqqiy etish qonuniyatlarini bilish zarur. Shuning uchun pedagogika ijtimoiy fanlardan biri sifatida ijtimoiy fanlar bilan yaqin aloqada rivojlanib boradi. Tarbiya maqsad va vazifalarini inson shaxsining har tomonlama rivojlanish qonuniyatlarini ishlab chiqarish jarayonida tarix, falsafa, iqtisod, sosiologiya, etika, estetika, [umumiy psixologiya](#), yosh psixologiyasi, pedagogik psixologiya, kasb psixologiyasi, oila psixologiyasi, ijtimoiy psixologiya, [odam psixologiyasi](#), harbiy psixologiya va fiziologiyasi bolalar gigienasi, pediatriya, medisina, kibernetika va boshqa fanlar bilan aloqa qiladi. Psixologiya fani bilan aloqasini tahlil qilamiz. Pedagog o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berishda ularni sezgisi, idroki, tasavvur, diqqat, tafakkur va xotirasi kabi psixik jarayonlarni bilish darkor. Shuning uchun pedagogika fani psixologiya fani bilan alohida ish olib boradi. Har bir fan o'z rivojlanishida o'z nazariyalarini boyitishda o'zining ichki ilmiy yo'nalishlariga tayanib, takomillashib boradi.

«Kreativ insonlar»ni tavsiflovchi shaxsiy xususiyatlarni aniqlashga doir juda ko'p adabiyotlar mavjud. Kreativ insonlarning shaxsiyati haqida xulq-atvorini o'rganuvchi empirik tadqiqotlarda, odatda anketa vositalaridan foydalaniladi va ijodkorlikni nisbatan barqaror shaxsiyat fazilati sifatida ishlatadi. Mazkur tadqiqotlar kopchilik kreativ insonlar fikrlashga va shuning bilan birgalikda, «ochiqlikka» ishtiyoqmand ekanini: ya'ni ularda ham «tajribaga ochiqlik» ham «bilim olishga ochiqlik» (garchi ikkala variant ham kattaroq «ochiqlik» faktorini o'z ichiga olgandek ko'rinsa ham) mavjud ekanligini ko'rsatadi.

Jamoaviy yondashuv qobiliyati bilim va ko'nikmaning hosil qilinishida ham, ta'lim olish jarayonida ham muhim ahamiyatga ega. Maktablar oquvchilarning boshqa tengqurlari bilan fikr-mulohazalarini o'rganish jarayonida o'zlari uchun kashf etishlari yoki rivojlantirishlari hamda yangidan-yangi bilim va konikmlalarni birgalikda ozlashtirishlari uchun imkoniyat

yaratadi. Oquvchilar boshqalarning fikr-mulohazalarini hurmat qilishni, birgalikda ishlash ko'nikmasini hosil qilishni va jamoaviy harakatlanishni o'rganishlari kerak.

Xulosa qilib aytganda, ta'lim sohasida olib borilgan bir qator izlanishlar orqali bilim va ko'nikmalarning hosil qilinishi ehtimolini oshiradigan o'qitish yoki o'rganishning turli usullari tadqiq etildi. Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, kreativ fikrlash bilim va ko'nikmalarni hosil qilishga imkon beruvchi jamoaviy muhitda birgalikda ishlash orqali samarali rivojlantirilishi mumkin. Boshqacha aytganda, maktablar bilim va ko'nikmalarni hosilqiluvchi tashkilot sifatida faoliyat ko'rsatib, unda o'quvchilar yangidan-yangi g'oyalar bilan sug'orilgan ijodiy va muntazam faoliyat turi bilan faol shugullanadi. Qachonki bilim hosil qilish jarayoni ta'lim jarayonining ajralmas qismi bo'lgan maqsadli faoliyatga, ya'ni kundalik faoliyat turiga aylansa, oquvchiyangidan-yangi fikr-mulohazalari va mazkur fikr-mulohazalarni doimiy rivojlantirib boradigan amaliy faoliyatlar bilan jamiyat rivojiga o'z hissasini qoshadi

Kreativ yondashuv O'quvchilarning kreativligi ularning ijodiy fikrlash qobiliyatlarida, ayniqsa ijodiy fikrlash jarayonining aksariyati "ko'rinmas" vazifalarni bajarishda namoyon bo'ladi. O'quvchining ijodiy barkamolligi uning kreativ fikrlash jarayonini muvaffaqiyatli amalga oshgan yoki oshmaganini aniqlashda katta ahamiyat kasb etadi. Yillar mobaynida insonning bir necha sohalaridagi ijodiy barkamolligining ahamiyati va uning tahlili borasida ko'plab adabiyotlar vujudga kelgan. Ushbu yozilgan adabiyotlarda berilgan ta'riflarga ko'ra, kreativ barkamollik ma'lum ijtimoiy sohaga nisbatan yangi va foydali, deb qaralgan. Ta'lim jaryonida esa kreativ yondashuv o'zining "kundalik" shakliga egadir. Masalan, u yozish, chizish, musiqa yoki "san'at"ning boshqa sohalarining ifodaviy faoliyati, yangi bilim va tushunchalar hosil qilish, yoki turli ochiq turdagi savollarga kreativ yechimlar topish orqali namoyon bo'ladi.

References:

1. Usmonova, O. N. Tarbiyasi og'ir o'quvchilar bilan fizika fanida ishlash / O. N. Usmonova, M. I. Shokirjonova, Z. Yo. Meliboyeva, K. T. Tillaboyev. — Tekst: neposredstvennyy // Molodoy uchenyy. — 2022. — № 48 (443). — S. 621–623.
2. Tillaboyev, K. T., & Usmanov, Sh.. (2022). Maktablarda fizika fanini o'qitishda matematikaning o'rni. Academic Research in Educational Sciences, 3(11), 461–464.
3. Tillaboyev, K. T., & Usmanov, Sh.. (2022). Fizikani o'qitishda zamonaviy usullardan foydalanish. Academic Research in Educational Sciences, 3(11), 18–24.
4. K.T. Tillaboyev I.U. Tadjibaev (2022). Astronomiya darslarida fotometriyani o'qitishning asoslari. Fizikaning rivojida fundamental-innovatsion tadqiqotlar va uning istiqbollari, 144–146